



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko'chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28  
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2025 yil "10" fevral  
102-son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig'ilishining  
6-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«29» yanvar 2025-yil

**Raislik qiluvchi: Sh.A.Boymurodov**

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
v.v.b rektori, professor

**Qatnashdilar:**

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
Ilmiy kengashi a'zolari  
(ro'yxat bo'yicha)

**KUN TARTIBI**

1. Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o'rirlarda – Akademiya) pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti hisoboti.

**Ma'ruzachi** – Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani Xamraev Abror Asrorovich.

2. Akademiyada xalqaro hamkorlik va xalqaro dasturlar bo'yicha faoliyat tahlili.

**Ma'ruzachi** – Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori Israilov Jahongir Jamshidovich.

3. Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

**Ma'ruzachi** – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

**Ma'ruzachi** – O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

## **QAROR QILADI:**

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo'yicha "Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti hisoboti" mavzusi bo'yicha pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani Xamrayev Abror Asrorovichning ma'lumoti qoniqarli deb hisoblansin hamda axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

1.1. Stomatologiya ta'lim yo'naliшlarining Yangi tashkil qilinishi kerak bo'lgan kafedralar, jumladan "Jarrohlik stomatologiya", "Terapeutik stomatologiya", "Ortopedik stomatologiya", "Bolalar stomatologiyasi", "Ortodontiya"- bosqichma bosqich tashkil qilinishi, ularni jihozlash va klinik bazalari masalasini yakuniga yetkazilishi ta'minlansin. Shu jumladan, 5-TTJning 1-qavatida ushbu yo'naliш uchun zarur bo'lgan kafedralarni joylashtirilishi bo'yicha takliflar kiritilsin hamda xususiy stomatologik klinikalar bilan shartnomalar tuzilishi ko'rib chiqilsin.

**Mas'ul:** O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Davolash ishlari bo'yicha prorektori M.Sh.Karimov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oipov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamrayev.

**Muddat:** 2024/2025- o'quv yili davomida.

1.2. Stomatologiya ta'lim yo'naliшhi bo'yicha asbob-uskunalarni xarid qilish bo'yicha Yo'l xaritasida belgilangan chora tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirilishi, shuningdek, stomatologik fantom xonalarini tashkil qilinishi va kerakli jihozlar bilan ta'minlanishi va xarid qilinishi bo'yicha takliflar kiritilsin.

**Mas'ul:** O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oipov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamrayev.

**Muddat:** 2024/ 2025- o'quv yili davomida.

1.3. Akademiyada Yangi tashkil qilinishi kerak bo'lgan kafedralar ta'lim yo'naliшlarining ("Jarrohlik stomatologiya", "Terapeutik stomatologiya", "Ortopedik stomatologiya", "Bolalar stomatologiyasi", "Ortodontiya") - o'quv jarayoni tashkil qilish bo'yicha, shu jumladan elektron shaklida, zamonaviy adabiyotlar bilan boyitilishi, yangi adabiyotlar yaratilishi, xarid qilinishi bo'yicha takliflar kiritilsin hamda ijrochi va muddati aniq belgilangan holda bajarilishi ta'minlansin.

**Mas'ul:** O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oipov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

**Muddat:** 2025-yil fevral - mart.

1.4. Akademiyada ochilgan va Yangi tashkil qilinishi kerak bo'lgan ta'lim yo'naliшlar (Stomatologiya, Xalq tabobati, Surdotarjimonlik, Jarrohlik stomatologiya, Terapeutik stomatologiya, Ortopedik stomatologiya, Bolalar stomatologiyasi,

Ortodontiya) uchun kadrlar tayyorlash maqsadida kasbga yo'naltirilgan targ'ibot va saralash ishlari olib borilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamrayev, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024/2025- o'quv yili davomida.**

1.5.Maxsus pedagogika: surdotarjimonlik ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxasislarni jalg etish, o'quv adabiyotlarini xarid qilish va yaratish, mutaxassislik uchun maxsus auditoriyalarni tashkil etish, me'yoriy hujjatlarni shakllantirish bo'yicha ishlar Yo'l xaritasida belgilangan chora tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oipov, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamraev, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024/2025- o'quv yili davomida.**

1.6. Pediatriya ta'lim yo'nalishi bo'yicha mavjud kafedralar negizida shu fanga tegishli pediatrik kurslarni tashkil qilinishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamraev, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024/2025- o'quv yili davomida.**

1.7. Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti kafedralalarining ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida har bir xodimning o'quv-ilmiy mahsulotlar yaratish vazifalarini bajarilishinib o'yicha tizimli va doimiy monitoringi va nazorat qilinishi kuchaytirilsin.

**Mas'ul: Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamrayev, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.Turakulov, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.**

1.8.Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti kafedralalarining o'quv va o'quv-uslubiy mahsulotlar salmog'ini oshirilishi hamda ilmiy adabiyotlarni ko'paytirilishi ta'minlansin.

**Mas'ul:O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamrayev, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.**

1.9.Akademianing barcha fakultet kafedralalarining bakalavriatura va magistratura yo'nalishlaridagi ta'lim olayotgan iqtidorli talabalar orasida diplomdan keyingi ta'lim (magistratura va doktorantura) ni munosib kadrlar bilan boyitish maqsadida seleksiya ishlari olib borilishi kuchaytirilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.**

1.10. Pedatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti kafedralarining HEMIS tizimi va elektron jurnal yuritish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi hamda nazoratda bo'lishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Pedatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamrayev, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.**

1.11. Akademianing barcha fakultet kafedralari tomonidan davlat va xorijiy ilmiy grant-loyhalari tanlovlardida faol qatnashishlari yangi ilmiy grant loyhalarini yaratilishi va xo'jalik shartnomalar bo'yicha olib borilayotgan ishlarni talab darajasida rasmiylashtirilishi va ko'paytirilishi ta'minlansin, shuningdek, Respublika va Xalqaro ilmiy, o'quv - uslubiy konferensiyalar va fan olimpiadalarini o'tkazilishini ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.**

1.12. Akademianing barcha fakultet kafedralari professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirilishi bo'yicha rejaga binoan bajarilishining monitoringini olib borilishi, shu jumladan, xorijiy Oliy ta'lim muassasalari va markazlari professor-o'qituvchilar bilan hamkorlik ishlari (tajriba almashinushi, qo'shma ilmiy va o'quv-uslubiy konferensiyalar, ilmiy loyihibarlar, telemeditsina va boshqa) tashkillashtirilishi va amalga oshirilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024/2025 o'quv yili davomida.**

1.13. Akademianing barcha kafedralarida, jumladan bakalavriat talabalarini xorijiy tillarni o'rGANISHGA yo'naltirilishi, milliy va xorijiy sertifikatga ega bo'lishi, keyinchalik magistratura yo'naliishlariga kirishi bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilishi kuchaytirilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.**

1.14. Barcha fakultet kafedralarida HEMIS tizimini bo'yicha to'liq faoliyat yuritilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Registrator ofisi direktori F.B.Saloxiddinov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

## **Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.**

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo‘yicha “Akademiyada xalqaro hamkorlik va xalqaro dasturlar bo‘yicha faoliyat tahlili” - Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor Israilov Jahongir Jamshidovichning ma’lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

### ***Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha kafedralarga kuyidagi vazifalar bajarilishi ta’mirlansin:***

2.1. Akademianing barcha kafedralarida xorijiy universitetlarda ma’ruzalar, seminarlar, mahorat darslari va boshqalarni o‘tkazish («Guest lectures»), shuningdek, professor-o‘qituvchilarni xorijga malaka oshirishga va boshqa ilmiy tadbirlarda ishtirok etishlari bo‘yicha ishlar olib borilishi ta’mirlansin.

2.2. Akademianing barcha kafedralarida o‘quv jarayoniga xorijiy mutaxassislarning jalb etish bo‘yicha ishlar jadallashtirilsin.

2.3. Akademianing barcha kafedralari tomonidan xalqaro loyiha va dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha takliflar berilsin.

2.4. Akademianing barcha kafedralari professor-o‘qituvchilari tomonidan xorijiy hamkorlar bilan ilmiy va o‘quv mahsulotlarni yaratish bo‘yicha ishlar olib borilishi ta’mirlansin.

2.5. Akademianing barcha kafedralari xalqaro akademik reputatsiyasida xorijiy hamkorlarni ishtirok etishlarida faol qatnashishlari ta’mirlansin.

2.6. Ish beruvchilarning fikrini xalqaro o‘rganishda xorijiy hamkorlarni ishtirok etishlari ta’mirlansin.

2.7. Akademianing barcha kafedralari professor-o‘qituvchilari tomonidan xalqaro hamkorlar bilan qo‘shma ilmiy maqolalar, qo‘shma monografiyalar chop etilishi ta’mirlansin.

2.8. Akademianing barcha kafedralari professor-o‘qituvchilari tomonidan xorijiy universitetlarda “Faxrli professor” unvonini egallashlari, xalqaro mukofotlarni qo‘lga kiritishlari hamda Xalqaro ilmiy jamiyat va uyushmalarga a’zo bo‘lishlari bo‘yicha ishlar olib borilishi ta’mirlansin.

2.9. Akademianing barcha kafedralarida o‘quv dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilishi bo‘yicha puhta tayyorgarlik ko‘rishlari ta’mirlansin.

### **Mas’ul: Kafedra mudirlari.**

## **Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.**

3. Kun tartibining keyingi masalasi “Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash” bo‘yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova professor ilmiy unvoniga talabgor 14.00.17 – farmakologiya va klinik farmakologiya ixtisosligi bo‘yicha Biotibbiyot tadqiqotlar markazi ilmiy xodimi, t.f.d. A.X.Raxmanov, dotsent ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.22 – Travmatologiya va ortopediya ixtisosligi bo‘yicha, 1-son travmatologiya, ortopediya va HDJ kafedrasi dotsenti, t.f.d. F.B.Saloxiddinov, 14.00.08 – Oftalmologiya ixtisosligi bo‘yicha, Oftalmologiya kafedrasi dotsenti, t.f.n.

B.E.Bilalov nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma'lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. So'ng saylov o'tkazildi (saylov hay'ati a'zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4.Kun tartibining keyingi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5.Turli masalalar bo'yicha Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A. Bobomuratov, Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.D.Israilov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.To'raqulov va Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.Goipovlar so'zga chiqdilar.

5.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va Toshkent tibbiyot akademiyasida ta'sis etilgan nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar tanlovini o'tkazish va ularni tayinlash tartibi to'g'risidagi nizomiga ba'zi o'zgartirishlar kiritilsin, ya'ni:

- "TTA "Odob axloq-odob kodeksi" bandlarini qo'pol ravishda buzgan va "Odob-axloq komissiyasi"da masalasi ko'rilgan talabalar hamda stipendiyalarga hujjatlar qabul qilish davomida qalbakiligi isbotlangan holatda bir yil davomida hech qanday stipendiyalarga va nominatsiyalarga hujjat topshirolmaydi".

*Innovatsion rivojlanish agentligiga kuyidagi ilmiy loyihibar tanlovda qatnashish uchun tavsiya etilsin:*

5.2.Oilaviy tibbiyotda xirurgik kasalliklar kafedrasidan: "Qo'l barmoqlarini travmatik amputatsiya bo'lgan cho'ltoq sohalarini, qon tomirli loskut yordamida yangi funksional, sezuvchan barmoq shakllantirish" (rus. "Формирование нового функционального и чувствительного пальца кисти на посттравматически ампутированных кульях пальцев с помощью микрохирургической трансплантации сосудистого лоскута". (Loyiha rahbari: assistant Kurbanov Gayrat Imamalievich).

5.3.Belarus Respublikasi Fan va texnologiyalar qo'mitasi bilan hamkorlikda Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajariladigan amaliy tadqiqotlar **va** innovatsion loyihibar buyicha "O'zbekiston-Belarus" xalqaro qo'shma tanloviga tavsiya etilsin:

- Oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar va preventiv tibbiet asoslari kafedrasidan: «O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi etnik millatlarning asosiy yurak qon tomir kasalliklarining koagulyatsion tizim genlari polimorfizmiga ko'ra genetik xaritasini yaratish» (rus. «Разработка генетической карты свертывающей системы основных сердечно-сосудистых заболеваний на основе полиморфизма генов в этнических группах, постоянно проживающих в Республике Узбекистан»). (Loyiha rahbari: prof. Nurillaeva Nargiza Muxtarhanovna).

5.4. Belarus Respublikasi Fan va texnologiyalar qo‘mitasi bilan hamkorlikda Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajariladigan amaliy tadqiqotlar va innovatsion loyihibar buyicha “O‘zbekiston-Belarus” xalqaro qo‘shma tanloviga tavsiya etilsin:

- Farmakologiya kafedrasidan: “Ziziphora pedicellata pazij, Glycyrrhiza glabra l., Plantago major l. dorivor o‘simgiklar asosida gastroprotektor ta’sirga ega quruq ekstrakt ishlab chiqish”(rus. «Разработка сухого экстракта с гастропротекторным действием на основе лекарственных растений Ziziphora pedicellata Pazij, Glycyrrhiza glabra L., Plantago major L.»).(Loyiha rahbari: farmakologiya kafedrasasi katta o‘qituvchisi, PhD Djanaev Gayrat Yusupovich).

5.5. Toshkent tibbiyot akademiyasining IL-AL-662205483-sonli “Nogiron bolalar uchun aravacha” nomli ilmiy-amaliy grant loyihasi (PhD) dotsent I.R. Urazaliyeva rahbarligi ostida ishlar olib borilmoqda.

Innovatsion rivojlanish agentligining 2024-yil 7-sentabrdagi 01-16/3095-son xatiga muvofiq xarajatlar smetasida ko‘zda tutilgan mablag‘dan chiqmagan holda sotib olinadigan asbob uskunalar turini o‘zgartirishga ruhsat etilgan.

Loyiha samardorligi yanada oshirish maqsadida, iqtisod qilingan mablag‘lar hisobidan 1 dona elektroforez (Potok 1 EMA) apparati xarid qilish tavsiya etilsin.

Elektroforez (Potok 1 EMA) - bu elektroforez va fizioterapiya birlashtirilgan holda og‘riq va yallig‘lanishlarda, mushaklarda qon aylanish tizimini yahshilashda, inson tanasida terapevik, profilaktik maqsadlar bilan doimiy ishlashga mo‘ljallangan.

5.6. Toshkent tibbiyot akademiyasining Akusherlik va ginekologiya kafedrasining 2-bosqich doktoranti Sultanmuratova Guli O‘tkirovnani Turkiyaning “BALIKESIR UNIVERSITI”ga 1 oy muddatga maqsadli ilmiy stajirovkaga yuborishga tavsiya etilsin.

5.7. 2024/2025 o‘quv yilida Menejment ta’lim yo‘nalishining 1-kursiga to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga tavsiya etilgan Ma’murova Farangizbegim Sanjar qizi kontrakt to‘lovinini oilaviy sharoiti yo‘qligi hisobiga belgilangan muddatidan kechiktirib to‘laganligi inobatga olgan holda Ma’murova Farangizbegim Sanjar qiziga talabalar safiga qabul qilish buyrug‘ini rasmiylashtirishga ruxsat berilsin.

5.8. YaDA tashkil etiladigan ta’lim yo‘nalishalari va mutaxassisliklari bo‘yicha fanlar ro‘yxati, sinov shakli tasdiqlansin va TTA veb saytida e’lon qilinsin.



**Rektor v.v.b**

Ijrochi: G.A.Ismailova  
Tel: +998 97 461 80 41

**Sh.A.Boymuradov**